

AYOLLAR VA BOLALARGA NISBATAN SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA UCHRAYDIGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI



Normatova Shirin Abdulnabiyevna
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda uchraydigan ayrim muammolar va ularing yechimlariga doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, maishiy jinoyatlarni sodir etishda zo'rlik ishlatishga asoslangan egoistik motivatsiya ustunlik qilishi hamda u g'arazgo'ylik motivlari bilan birlashishi mumkinligi o'rganilgan.

Maqolada ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlarda jabrlanuvchi xulq-atvori ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanib, uning oldini olish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ayollar, bolalar, jabrlanuvchi, jinoyatchilik, jihatlar, g'arazgo'ylik, xulq-atvor, huquqbuzarliklar, motiv, kriminologik.

Аннотация. В данной статье анализируются некоторые проблемы, возникающие при предотвращении правонарушений и преступлений, которые могут быть совершены в отношении женщин и детей, и вопросы, связанные с их решением. Кроме того показано, что при совершении бытовых преступлений преобладает эгоистическая мотивация, основанная на применении насилия, и она может сочетаться с корыстными мотивами. Подчеркивается важность поведения жертвы в преступлениях против женщин и детей, и даются соответствующие предложения и рекомендации по его предотвращению.

Ключевые слова: женщины, дети, жертва, преступность, аспекты, предвзятость, поведение, правонарушения, мотив, криминологический.

Abstract. This article analyzes some problems encountered in the prevention of offenses and crimes against women and children, and issues related to their solutions. In addition, this article shows that in the commission of domestic crimes, egoistic motivation based on the use of force prevails and can be combined with motives of malice. The article emphasizes the importance of victim behavior in crimes against women and children and provides relevant suggestions and recommendations for its prevention.

Keywords: women, children, victim, crime, aspects, bias, behavior, offenses, motive, criminological.

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022-yil 28-yanvardagi farmonning 69-bandida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat

hayotidagi faol ishtirokini ta'minlashga bag'ishlangan bo'lib, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash, «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi masalalar belgilab berilgan. Bu esa, davlat

organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, jinoyatchilik tahlillariga ko'ra, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik jinoyatlari umumiy jinoyatchilik tarkibida sezilarli darajada ulushga ega bo'lib, so'nggi paytlarda ularning salmog'i ortib bormoqda. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik jamiyatga, oilaga, shaxsga moddiy va ma'naviy zarar yetkazish bir birga, jamiyatning rivojlanishi hamda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar ijtimoiy hodisa bo'lib, unga turli darajadagi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, bu boradagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish imkonini beradigan ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan voqea, hodisa va jara-yonlarni hamda kelajakda jamiyat hayotida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarni kriminologik prognoz qilish jinoyatchilikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminologik nuqtai nazardan ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning dinamikasi va tendensiyalarini o'rganish, tahlil qilish juda muhim. Tuzilgan nikohlar, ajralishlar, ko'chib kelganlar, tug'ilganlar va o'lganlar soniga doir ma'lumotlarning o'zgarishi ham ma'lum darajada ushbu turdagi jinoyatlar dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi [1].

Yuridik adabiyotlarda qayd etilishicha, «jinoyatchilik darajasi mamlakat yoki uning ma'muriy-hududiy birligida, ma'lum davrda sodir etilgan jinoyatlar yoki ularni sodir etgan shaxslar miqdorining o'sha hududda yashovchi aholining boshqa qismiga nisbatan olingan miqdori hisoblanadi» [2]. Q.R.Abdurasulova to'g'ri ta'kidlaganidek, jinoyatchilik eng avvalo ijtimoiy salbiy hodisa bo'lgani uchun, uning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, xususiyatlari, dinamikasi va tuzilishidagi o'zgarishlarning tub sabablari jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, jug'rofiy-siyosiy va demografik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir [3].

B.A.Umirzakov jinoyatchilik miqdor va sifat ko'rsatkichlarining to'g'ri va chuqur tadqiq etilishi uning haqiqiy holati haqida to'g'ri tasavvur hosil

qilish hamda hududlardagi kriminogen vaziyat haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi [4], deb ta'kidlaydi.

Mazkur fikrga to'liq qo'shilgan holda aytish lozimki, ma'muriy hududlardagi kriminogen vaziyat haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo'yicha tezkor profilaktika choralari amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ayrim yuridik adabiyotlarda jinoyatchilik quyidagi mezonlarga bo'lib tahlil qilingan: 1) rasmiy hisobga olinganligiga ko'ra; 2) hududiy miqyosiga ko'ra; 3) jinoyatchining jinsiga ko'ra; 4) jinoyatchining yoshiga ko'ra; 5) jinoyatchining kasbiga ko'ra; 6) jinoyatchining fuqaroligiga ko'ra; 7) sodir etilgan joyiga ko'ra; 8) sodir etilgan sohasiga ko'ra; 9) tajovuz yo'nalishiga ko'ra; 10) boshqa mezonlarga ko'ra [5].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik natijasida sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va ularni ro'yxatga olishdagi muammolar, jabrlanuvchi shaxslarning ko'pligi hamda ushbu turdagi jinoyatlar latentlik darajasining yuqori ekanligi jinoyatchi shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligining ta'minlanmasdan qolishiga olib kelmoqda. Bunday omillarning mavjudligi jamiyatdagi kriminogen vaziyatga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Agar ulardan biri butunlay yoki uning ma'lum bir qismi o'zgarsa, albatta, ikkinchisida ham shunday o'zgarishlar ro'y beradi. Zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosan oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatchilikning holati, dinamikasi, darajasi va tuzilishini tashkil etadi. Ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatchilikni prognoz qilish uning profilaktikasiga doir choralarni rejalashtirishga xizmat qiladi.

Ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilgan jinoyatchilik dinamikasi deganda, muayyan davr (oy, yilning choragi, yarim yillik, yillik, besh yillik, o'n yillik, yigirma yillik va h.k.) oralig'ida umuman jinoyatchilik hamda uning miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'sishi yoki kamayishi tushuniladi.

Kriminologiyada jinoyatchilik dinamikasini tahlil qilish o'tgan davrdagi jinoyatchilik ko'rsat-

kichlarining o'zgarishi haqida tushuncha beradi va bu o'zgarishlarning qonuniyatlari va yo'nalishini aniqlaydi.

Shular asosida, yaqin va uzoq kelajakdagi jinoyatchilik ko'rsatkichlarini prognoz qilish unga qarshi kurashni rejalashtirish imkonini beradi. Jinoyatchilik dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillardagi o'zgarishlarni aniq e'tiborga olinishi jinoyatchilikni prognoz qilish uchun ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jarayonida ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar dinamikasining o'zgarishiga jamiyatlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, huquqiy omillar ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Ayrim tadqiqotlarda aholining ijtimoiy demografik tarkibi, migratsiya jarayonlari, jinoiy yoki ma'muriy qilmishlar doirasini kamaytiruvchi yoki kengaytiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalar, jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, aybdorlarni fosh etish va ularga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan [6].

Ma'muriy hududlardagi oilalar va ulardagi nizoli kriminogen vaziyatlar haqida zarur kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish ushbu turdagi jinoyatlarni barvaqt aniqlashga xizmat qiladi. Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotining ko'rsatishicha, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning asosiy qismi oila-turmush munosabatlari doirasidagi nizolar tufayli kelib chiqmoqda.

K.A.Myasnikova to'g'ri ta'kidlaganidek, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklar asosan kundalik turmush jarayonida er-xotin, aka-uka, opa-singil, qaynona-kelin, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni nizoli yo'l bilan hal etilishi oqibatida vujudga keladi [7].

F.A.Melikovning fikricha, ayollar va bolalarga tazyiq va zo'ravonliklar shaxsga nisbatan majburlash harakatlarini amalga oshirish, jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan jazo qo'llash tahdidi bilan sodir qilinadigan qilmish hisoblanadi [8].

Bir qator kriminolog olimlar ayollar va bolalarga tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarda jabrlanuvchi shaxslarning viktin xulq-atvori muhim o'rin tutishini ta'kidlashgan [9]. Bunda jabrlanuvchi muqarrar vaziyatning elementi sifatida aybdorning ruhiy holati va xulq-atvori, mazkur mexanizmga

amal qilishi, shuningdek jinoiy xulq-atvor motivatsiyasidan boshlab ishtirok etadi.

Jinoiy xulq-atvor motivatsiyasini kriminologik o'rganish shaxsning zo'rlik ishlatish niyati tug'ilishiga sabab bo'luvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash, tahlil qilishdan boshlanadi. Bunday moyillikning paydo bo'lishi faqat aybdor shaxsining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, jinoyatning boshlanishini tashkil etadi. Masalan, rahmsizlik, manmanlik, kek saqlash, rashk, g'arazgo'ylik, g'ayritabiiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan jinsiy moyilliklar va boshqalar. Turg'un motivlarning mavjudligi va ularni zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda amalga oshirish, jabrlanuvchidan ham ko'ra, ko'proq aybdorning shaxsi bilan bog'liq bo'ladi.

Kriminologik tadqiqotlarning natijalariga [10] ko'ra, oilada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning va undan jabrlanishning o'sishi va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'pgina omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bunday omillardan biri – bu inson xulq-atvori motivatsiyasining shakllanishi. A.N.Ilyashenkoning fikriga ko'ra, jinoyatchi shaxsining shakllanish omillarini samarali o'rganish jinoiy xulq-atvor motivlarini tadqiq etishni taqozo qiladi. Chunki xulq-atvor motivatsiyasi shaxs va uning xususiyatlari va qiziqishlari bilan uzviy bog'liqdir [11].

Masalan, oilada voyaga yetmaganlar tomonidan zo'rlik ishlatilish sabablarini, ular boshdan kechirayotgan o'tish davrining asosiy ziddiyatlari bilan bog'lamasdan tushuntirish mumkin emas. R.M.Abizov va G.A.Yurkovning fikrlariga ko'ra, jamiyatda mavjud asosiy ziddiyatlarning yechilmaganligi oqibatlarini o'rganish, voyaga yetmaganlar tomonidan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning sabablarini tushunish imkonini beradi [12].

Jinoyat ishlari tahlili maishiy jinoyatlarni sodir etishda zo'rlik ishlatishga asoslangan egoistik motivatsiya ustunlik qilib, u g'arazgo'ylik motivlari bilan birlashishi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'rib chiqilayotgan jinoyatlarning aksariyatida jabrlanganlar jinoyatchining qarindoshi va oila a'zolari bo'lgan, jinoyatlar zamirida esa adovatli shaxsiy munosabatlar yoki spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish yotadi.

Maishiy sohada zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etgan shaxslarning qariyb uchdan ikki qismi jinoyatlarni sodir etish paytida alkogoldan, ikki

foizga yaqini esa giyohvandlik vositalaridan mast holda bo'lgan.

Mast holatda sodir etilgan jinoyatlar tufayli yetkazilgan zarar miqdori yuqori hisoblanadi. Ichkilikka ruju qo'rganlar o'z harakatlari bilan nafaqat jabrlanuvchilar va ularning qarindoshlarini, balki o'z yaqinlarini ham azob-uqubatlarga giriftor etadilar [13].

Shu o'rinda zo'rlik va g'arazgo'ylik motivatsiyalari o'rtasidagi aniq chegarani ko'rsatish qiyinchilik tug'dirishini ta'kidlash kerak. Shuning uchun ham kriminologik adabiyotlarda "g'arazgo'ylik va zo'rlik" jinoyatlari atamasi qo'llaniladi. Lekin mazkur motivatsiyalar kriminologik tarkibi (jumladan, jabrlanuvchining o'rne) va ijtimoiy usullari bilan farqlanadi.

Bunda tajovuzga moyillik aynan tashqi holatlar, hayotdagi muayyan vaziyat ta'siri bilan belgilanishi va tashqi muhitning turli omillari tajovuz uyg'otuvchi xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Ammo zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarda jabrlanuvchi shaxsning vujudga kelishi va jabrlangan shaxsning xulq-atvori ana shunday omil sifatida namoyon bo'ladi. Bunday jinoyatlarga doir ko'p sonli ishlarni o'rganish jabrlanuvchi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tajovuzkor-zo'ravonlik motivatsiyasini belgilovchi bir nechta omillarni farqlash imkonini beradi. Masalan, u yoki bu maqsadga erishishga monelik qiluvchi omillarning mavjudligi. Bunda mazkur omil jabrlanuvchi aybdorning muayyan xulq-atvoriga to'siqlar yaratishi bilan bog'liq bo'lishi yoki jabrlanuvchining jismoniy mavjudligi, uning shaxsiy xususiyatlari yoki xulq-atvoridan qat'i nazar, bunday to'siqlarni yaratishi mumkin.

Bu subyekt oldiga ikki yoki bir nechta vaziyatni, obyekt yoki hodisalardan birini tanlash imkonini beradi.

Shuningdek, jabrlanuvchining og'zaki haqoratlar, qo'rqitishlari, aybdorga yoki uning yaqinlariga salbiy munosabatda bo'lish yoki jismoniy kuch ishlatish ko'rinishida ifodalanuvchi noqonuniy harakatlari, hech shubhasiz, zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga turtki beruvchi omillar hisoblanadi.

Barqaror motivlar shaxs xususiyatlari va jabrlanuvchining xulq-atvori bilan kamroq darajada belgilansa-da, ular zo'rlik ishlatib sodir etiladigan zo'ravonlik jinoyatlari motivatsiyasi va ko'rinishida

ishtirok etadi [14]. Masalan, jabrlanuvchining fe'l-atvori yoki xatti-harakatlarining muayyan sharoitda namoyon bo'lgan u yoki bu xususiyatlari aybdorning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan barqaror motiv – rashkni amalga oshirishga turtki beruvchi omilga aylanishi mumkin. Tajovuzni amalga oshirish imkoniyati subyekt vaziyatni qanday talqin qilishiga ham bog'liq, odatda, u subyektiv idrok etuvchi jabrlanuvchining xulq-atvori uning amaldagi xususiyatiga doim ham mos kelmaydi.

Shulardan kelib chiqib, *birinchidan*, hududlarda oila-turmush munosabatlari doirasida qasddan odam o'ldirish va qasddan badanga tan jarohati yetkazish jinoyatlarini sodir etgan hamda undan jabrlangan shaxslarning demografik ma'lumotlarini o'rganish va tahlil qilish asosida ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini tashkil etish lozim.

Ikkinchidan, tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan hamda sodir etishga moyil bo'lgan tajovuzkor, agressiv xulq-atvorli shaxslarning hisobdorligini yaratish maqsadida ularning elektron reestrini shakllantirib, ushbu toifadagi shaxslarning xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturidan o'tkazish ishlarini samarali tashkil etish lozim. Chunki, zo'ravonga tegishli chora ko'rilmasa yoki u bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar olib borilmasa u tomonidan takroran tazyiq va zo'ravonlik sodir etish xavfi ortib boraveradi.

Uchinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari uchun mas'ul idoralar buyurtmalari asosida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning sabab va shart-sharoitlari, huquqbuzar shaxs toifalari, eng ko'p huquqbuzarlik sodir etilgan hududlardagi kriminogen vaziyatlar va ularni bartaraf etish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun davlat buyurtmalarini berish amaliyotini joriy etish.

To'rtinchidan, tazyiq yoki zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan xotin-qizlarni aniqlab, ularning viktimlik darajasini kamaytirish maqsadida ushbu toifadagi shaxslarga nizolarni hal etish usullarini o'rgatish lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasa-lari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov; Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 69.
2. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov; Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 63-64.
3. Abdurasulova Q.R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: Monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2005. – B 14.
4. Umirzakov B.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va oldini olishni takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri dis. – T., 2021. – B. 35.
5. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I. Yu. Fazilov; Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 252 b. B 60-62.
6. Алауханов Е.О., Зарипов З.С. Профилактика преступлений: Учебник. – Алматы: Нур-пресс, 2008. – 98 с.
7. Мясникова К.А. Преступное насилие в криминофамилистике // Общество и право. №2. 2012. – С.147.
8. Ф.А. Меликов. Уголовно-правовые и криминологические меры противодействия насилию в семье: Дис. ... канд. юрид. наук. – М. 2017. – С. 3.
9. Шестаков Д.А. Предотвратить семейную драму. – М., 1998; Алиходжиева И.С. Женщина как жертва убийства (криминологическая характеристика и социально-правовые меры предупреждения): Дис ... канд. ... юрид. наук – Саратов, 1999; Ефимова М.П. Криминологическая характеристика насильственных преступлений, совершаемых в сфере семейно-бытовых отношений // Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в республике Саха (Якутия). – М., 2004. – С. 158–162; Ахмедханова С.Т. Криминологическая характеристика преступлений, совершаемых женщинами в семье, и проблемы их профилактики (региональное исследование): Автореф. Дис. ... кан. юрид. наук. – М., 2013. – С. 142-149.
10. Ильяшенко А.Н. Насилие. Личность. Общество // Тезисы научно-практической конференции. – М., 2000. – С. 12.
11. Ильяшенко А.Н. Борьба с насильственной преступностью в семье. – М., 2003. – С. 115.
12. Абызов Р.М., Юрков Г.А. Насильственные преступления несовершеннолетних: характеристика, типология личности, предупреждение. – Барнаул, 2001. – С. 73–74.
13. O'razaliyev M.Q. Jinoyatchilik bilan aloqador bo'lgan ijtimoiy salbiy hodisalarning sabablari va ularning oldini olish: Monoqrafiya. – Toshkent: TDYU, 2023. – 40-b.
14. Котова Н.К. Виктимологические проблемы криминальной агрессии. – Астана, 2001. – 148 с.

